

TAQLID SO‘ZLAR: LINGVOPRAGMATIK JIHAT

Yodgorov Jaloliddin Jamolidinovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: yodgorov202@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida undov va taqlid so‘zlarning badiiy matndagi poetik imkoniyatlari, uslubiy-funksional xususiyatlari hamda ularning ijodkor badiiy niyatini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda undov va taqlid so‘zlarning hissiy-estetik ta‘sir kuchi, fonetik, leksik va punktuatsion jihatlari, shuningdek, matnni tashkil etishdagi semantik va grafik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tilning paydo bo‘lishi haqidagi nazariy qarashlar asosida taqlidiy birliklarning tabiiy va qadimiy lisoniy hodisa sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Muallif undov va taqlid so‘zlarni intralingvistik hamda ekstralingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish zaruratini asoslab, ularning badiiy idrok va tafakkur shakllanishidagi roli ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *undov so‘zlar, taqlid so‘zlar, poetik imkoniyat, badiiy matn, uslubiy xususiyat, funksional jihat, antropotsentrik tilshunoslik, intralingvistika, ekstralingvistika, onomatopik tamoyil, tilning paydo bo‘lishi, hissiy-estetik assotsiatsiya, fonetik vositalar, leksik birliklar, punktuatsion ifoda, badiiy idrok, lisoniy birliklar, semantik mutanosiblik.*

KIRISH

O‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda turli lisoniy birliklar bilan birga undov va taqlid so‘zlarning poetik imkoniyat doirasini aniqlash, ularning uslubiy va funksional jihatlarini ko‘rsatib berish masalasiga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligida undov va taqlid so‘zlarning badiiy matndagi poetik imkoniyatlari tahlil etilgan tarqoq tadqiqot va turli qarashlar mavjud, lekin ularni monografik tarzda o‘rganish bilan bog‘liq bir necha vazifalar borligi ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, undov va taqlid so‘zlarning badiiy matnda ijodkorning badiiy niyatini yuzaga chiqarishdagi lisoniy ahamiyatini belgilash hamda bu birliklarning leksik tasvir qirralarini nazariy qarashlar asosida ochib berish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, undov va taqlid so‘zlarning badiiy matnda qay darajada grafik aks etish imkoniyatini aniqlash, shuningdek, bu birliklarning matnni tashkil etish borasidagi belgi va ma‘no mutanosibliklarini tilshunoslikning ichki (intralingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) jihatdan tadqiq etish muammoning kelgusi vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunda undov va taqlid so‘zlarning badiiy matndagi hissiy-estetik assotsiatsiyalarni o‘quvchining badiiy idroki hamda tafakkur doirasiga moslashda ularning fonetik, leksik va punktuatsion ahamiyatini aniqlash zarur.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, til va uning mohiyati haqida fanda ham, tegishli lug'atlarda ham behisob ta'rif-u tavsiflar mavjud. Tilning eng muhim jihatlarini umumlashtiruvchi ma'lumot sifatida uning kishilar o'rtasida aloqa va o'zaro fikr almashishning muhim vositasi ekanligi, borliqdagi narsa, hodisalarga va ularni ongda aks ettirishga xizmat qiluvchi vosita ekanligi hamda muayyan jamiyat doirasida hammaga ma'lum va maqbul bo'lgan tovush belgilari majmuyi ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, til millatlarning dunyoga qarash tarzini belgilovchi, umumlashtiruvchi murakkab hodisa bo'lib, tilshunoslik bilan birga, mantiq, falsafa, psixologiya kabi bir qator fanlarning o'rganish obyekti ham sanaladi. Tabiiy til dunyoni idrok etish va tushunchalarni shakllantirishning muayyan usulini yaratadi hamda muntazam takomillashtirib boradi. Tilning paydo bo'lishi haqidagi ilmiy qarashlarning zamirida uning soddadan murakkabga tomon shakllanib, takomillashib borishi bayon qilinadi. "Tildagi eng sodda, tabiiy va qadimiy so'zlar tovushga yoki obrazga taqlid asosida yuzaga kelgan so'zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq talqinlarda taqlidiy so'zlar masalasiga ham alohida o'rin beriladi. Hatto til tabiatdagi mavjud xilma-xil tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan degan qarash ham yo'q emas"¹. Darhaqiqat, til ijtimoiy hodisa sifatida insonlarning jam bo'lib yashashi, o'zaro u yoki bu shaklda muloqot qilishlari uchun paydo bo'lgan ehtiyojning natijasi edi. Bu masala G.Leybnis, Sharl de Brosse, Y.Herder kabi faylasuflarning ham e'tiborini tortgan va tilning kelib chiqishini onomatopik tamoyil (til tabiat tovushlariga taqlid qilish natijasida paydo bo'lgan degan fikr) va o'zaro bog'liqlik tamoyili (odamzodning birinchi so'zlari undov va taqlid so'zlar degan fikr) asosida izohlaganlar².

Zamonaviy tilshunoslikda, xususan, antropotsentrik tilshunoslikning rivojlanishi boshqa til birliklari qatorida undov va taqlid so'zlarni ham tilning egasi bilan birga o'rganishni eng muhim va dolzarb masala sifatida yana kun tartibiga chiqarmoqda. Bu esa undov va taqlid so'zlarning mohiyatini yanada teran tadqiq qilish imkonini bermoqda.

Faylasuflar so'zning paydo bo'lishida tovushli taqlid qilishning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlashadi. Hatto taqlid so'z inson nutqida paydo bo'lgan birinchi so'zlar ekanligiga ishonishadi, lekin bu shunga o'xshash hodisaning tomonini, ya'ni etimologik jarayonni aniqlash mushkul masala hisoblanadi. Zero, qadimgi Ellada olimlari ham hayvonlarning ovozlarga va atrofdagi dunyoga taqlid qilish

¹ Махмудов Н. Ўзбекнинг ўлмас сўзи. Бу ҳақда қаранг: Зариф сўз зиёрати. Тузувчилар: М.Йўлдошев, Д.Анданиёзова. – Анкара: Anlam Kitap, 2022. – Б. 79.

² Ашмарин Н. И. Подражание в языках Среднего Поволжья / Известия Азербайджанского университета. – Баку, 1925. Общественные науки. Вып. 1-2. – С. 143-157.

mumkin bo'lgan nutq manbalaridan biri ekanligi haqida taxmin qilishgan. Manbalarda undov va taqlid so'zlarni o'rganishning uzoq tarixga borib taqalishi, xususan, miloddan avvalgi II asrda Rim ensiklopedik olimi Mark Terens Varronning "Lotin tilida" asarida alohida ajratib ko'rsatilgani qayd qilinadi³. Antik falsafa va tilshunoslikda bu muammoni mifologik ong nuqtayi nazaridan hal qilishga urinishgan. Jumladan, qadimgi faylasuflarni tilning o'zigina qiziqirmagan, ularning mifologik talqinida va alohida fikrlash markazida so'z, ya'ni nom bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarga aloqador o'ziga xos taxmin(gipoteza)lar bo'lgan. Ularda biror narsaning nomi o'sha narsaning o'zi bilan uzviy bog'liq bo'lgan voqelik bilan aloqa mavjudligiga ishonish yuqori edi. A.Losevning fikriga tayanadigan bo'lsak, mifologik ongda u yoki bu narsa nomining aynanligi (belgi va mazmun o'rtasidagi aloqadorlik nazarda tutilyapti) xususida turli fikrlilik vujudga kelgan⁴. Keyinchalik nom va uning ma'nosi o'rtasidagi sirli bog'liqlik qadimgi mutafakkirlarni ikki guruhga: idealistlar va materialistlarga bo'linishiga sabab bo'ldi. Ushbu bahsda turli qarashlarda o'z davrining eng taniqli faylasuflari: Geraklit, Gorgias, Demokrit, Protagor, Epikur, Yempedokl, eleyalik Parmedon, Prodik, Platon, Aristotel kabilarning qarashlari falsafiy talqinlar oqimini vujudga keltirdi⁵. Zero, tilning paydo bo'lishi va insoniyat jamiyatining paydo bo'lishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik ana shu qarashlar bilan ahamiyatlidir. Ushbu qarashlarni mohiyat va yondashish jihatidan ikkita yo'nalishga ajratish mumkin. Tilshunos olim A.Lebedevning ma'lumotiga ko'ra, birinchi, ya'ni "fyusey" (lot. tabiiy) yo'nalish vakillari narsa nomi va uning ma'nosida bog'liqlik bor deb tushunishgan. Hozirda ushbu talqin vakillari idealistlar nomi bilan o'rganiladi. Ikkinchi, ya'ni "tesey" (lot. yaratilishiga ko'ra) yo'nalish vakillari esa nom va belgi hamda uning ma'nosining hech qanday aloqasi mavjud emas degan qarashni ilgari surishgan. Fanda ular materialistlar deb o'rganiladi⁶. Biroq bu yo'nalishdagi yondashuvlar va qarashlarda hali yagona termini qo'llash bo'yicha xulosaga kelingani yo'q. Xususan, mavzu doirasida ishlatiladigan "mimesis" (Platon), *mimemalar* (Ashmarin, Baskakov), *tasviriy so'zlar, taqlidiy so'zlar* (R.Qo'ng'urov, A.Iskakov), *onomatop so'zlar* (S.Voronin) va *imitativ* (V.Kornilov) kabi terminlar hozirgi mahalliy va jahon tilshunoslari tomonidan qo'llangan hamda qo'llanib kelinmoqda. (Biz tadqiqotimizda **taqlid**

³ Варрон М. Т. О латинском языке / пер. Я.М. Боровского // Античные теории языка и стиля. – М.: Соцэкгиз, 1936. – С. 80-83.

⁴ Ашмарин Н. И. Подражание в языках Среднего Поволжья / Известия Азербайджанского университета. – Баку, 1925. Общественные науки. Вып. 1-2. – С. 143-157.

⁵ Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ф.Фулом, 1980. – С. 840; Лосев А.Ф. Платон. Государство. – М.: Прогресс-Традиция, 1999; Аристотель. Большая этика. – М.: Мысль, 1983.

⁶ Лебедев А.В. Ранняя греческая философия. – М.: Наука, 1989. – 609 с.

so'zlar lisoniy birligini qo'llashni lozim topdik va bu borada aytmochi bo'lgan nazariy fikr va mulohazalarimizni shu termin atrofida birlashtirdik).

XVII asrga kelib rus olimi M.Lomonosov o'z asarlarida mazkur birliklarning ilmiy tavsifini bayon qiladi. U undov so'zlarga qisqa qilib "ruh harakatlarning qisqacha ifodasi" tarzida ta'rif berib⁷, qaysidir ma'noda o'ziga xos bu leksik birlik haqidagi nazariy qarashlar tadrijini boshlab berdi. Keyinchalik undov so'zlarning lingvistik sathda nazariy asoslarini V.fon Gumboldt, V.Vinogradov, O.Esperson, B.Ilish, Y.Kubryakova, M.Terentev, G.Paul, G.Suit va boshqa olimlar; nomlash nazariyasi M.Nikitin, A.Ufimseva, A.Xudyakovlar tomonidan; lingvistik-pragmatik qirralari A.Gurochkina, A.Kibrik, M.Nikitin, X.Xolek, A.Xudyakov, U.Cheyf kabi tilshunoslar tomonidan; kognitiv tilshunoslik jihatlari N.Boldirev, V.Demyankov, L.Luzina, M.Nikitin, Y.Pankrans, Y.Raxilina, I.Svitser, I.Sternin, Ch.Fillmor, J.Fokane, A.Xudyakovlar tomonidan, shuningdek, neyrolingvistik yondashuvlar P.Anoxin, V.Vundt, L.Vigotskiy, K.Izard, A.Leontev, Y.Reykovskiy, V.Shaxovskiy, L.Vernigor, M.Labashuk, A.Luriya kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi⁸.

⁷ Ломоносов М.В. Полное собрание сочинений. – М.: Наука, 1950. – С. 143.

⁸ Есперсен О. Философия грамматики. – М.: Наука, 1958. – 426 с.; Пауль Г. Принципы истории языка: Перевод с нем. – М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1960. – 500 с.; Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М.: Изд-во МГУ, 1962. – 431 с.; Ильиш Б.А. Строй современного английского языка. Теоретический курс. – Л.: Просвещение, 1965; Терентьев М. Грамматика турецкая, персидская, киргизская и узбекская. – СПб., 1875. – 209 с.; Чейф У.Л. Значение и структура. – М.: Прогресс, 1975. – 430 с.; Уфимцева А.А. Лексическая номинация. Языковая номинация: Виды наименований. – М.: Наука, 1977; Rosch E. Principles of Categorization. – Hillsdale: New Jersey, 1978. – P. 27-48; Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. – М.: Прогресс, 1979. – С. 133-179; – С. 3-128; Худяков И.Н. Об эмоционально-оценочной лексике. НДВШ // Филологические науки. – Москва, 1980. – №2. – С. 79- 82; Изард К.Э. Эмоции человека. – М.: Изд-во МГУ, 1980. – С. 439 с.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: L., 1980. – XIII. – 242 p.; Лакофф Дж. Лингвистические гештальты. – М.: Прогресс, 1981. – С. 350-368; Кибрик А.Е. Лингвистические постулаты: Ученые записки Тартуского университета, 1983. Вып. 621. – С. 24-39; Никитин М.В. Лексическое значение слова. – М.: Наука, 1983. – 127 с.; Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 400 с.; Анохин П. К. Эмоции // Психология эмоций. – М., 1984. – С. 173; Вундт В. Психология душевных волнений / Психология эмоций. – М.: Наука, 1984. – С. 48-67; Holec H. On autonomy: some elementary concepts. – London: Longman, 1985. – P. 173-190; Виноградов В.В. Русский язык / Грамматическое учение о слове. – М.: Просвещение, 1986. – 639 с.; Шаховский В.И. Отражение эмоций в семантике слова // Известия АН СССР Сер. лит. и яз., 1987. Вып. 46. – № 3. – С. 237-243; Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс, 1988. – С. 52-92; Панкранц Ю.Г. Пропозициональные структуры и их роль в формировании языковых единиц разных уровней. – Минск-Москва, 1992. – С. 82; Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. – Москва, 1994. – №4. – С. 17-33; Лузина Л.Г. Когнитивная метафора. – М.: Филол. фак. МГУ, 1996. – 245 с.; Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения. – М.: Ин-т языкознания РАН, 1997. – 327 с.; Рахилина Е.В. Когнитивный анализ предметных имен: семантика и сочетаемость. – М.: Русские словари, 2000. – 416 с.; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии. – Тамбов: Изд-во Тамбовского ун-та, 2000 – 123 с.; Вернигор В. Н. Модальный анализ механических колебаний упругих систем. – Рыбинск: РГТА, 2001. – 288 с.; Архипов И.К. Коммуникативный цейтнот и прототипическая семантика // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И.Герцена. № 4 (7): Общественные и гуманитарные науки: Научный журнал. – СПб., 2004. – С. 75-85; Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знания о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.; Гурочкина А.Г. Когнитивный и прагмасемантический аспекты функционирования языковых единиц в дискурсе. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2005. – 102 с.; Стернин И.А. О лингвокогнитивном подходе к языку: Значение. Смысл. Концептосфера. Межвузовский сборник научных трудов. – Воронеж: Истоки, 2009. – С. 8-11; Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. – М.: Астрел, 2009. – С. 47-66; Лабащук М. С. Соціокультурні та

Bu borada tilshunos olim A.Gazov-Ginzberg ham inson tafakkuri qanchalik rivojlansa ham, u til boshqa til birliklari qatori taqlid so'zlardan u yoki bu darajada foydalanishini aytib o'tadi. Olim taqlid so'zlarni badiiy matnda ustuvor ahamiyatga egaligi va ular borliq voqeligini yorqin tasvirlashda lisoniy asos bo'la olishini ta'kidlaydi⁹. G.Gachevning ta'kidlashicha esa har qanday tabiiy tovushni eshitish va tasvirlash benihoya subyektiv hodisa bo'lib, bir xil holatga keltirish murakkab jarayon hisoblanadi¹⁰. Shuning uchun har bir tilda bir taqlid so'zning bir necha ko'p ma'noli va shakldosh shakllari mavjud: *shildir-shildir – mildir-mildir; vajir-vajir – vajir-vujur; bilch-bilch – pilch-pilch; guldur-guldur – galdir-galdir; yalt-yalt – yarq-yarq; lo'q – lo'q* va b.

Mazkur mavzu turkiy tilshunoslikda A.Iskakov, Sh.Saribayev, B.Katembayeva, H.Zulfiqor, K.Xusainov, S.Kudaybergenov M.Xudaykuliyeu, Z.Sharafetdinova va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlari ham undov va taqlid so'zlarning tasnifi, lingvistik tabiatini aniqlash, shuningdek, bu birliklarning konseptual hamda kontekstual ma'no qirralarini yuzaga chiqarishga qaratilganligi bilan ahamiyatga molik bo'ldi¹¹. Sanab o'tilgan tadqiqotlarda undov va taqlid so'zlarning leksik-semantik va grammatik tabiatiga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, yuqoridagi tilshunoslar undov va taqlid so'zlar bo'yicha umumiy qabul qilingan tasnifni ishlab chiqish masalasi, ularning nutqdagi o'rni va leksikografik tamoyillarini belgilash kabi muhim masalalarga e'tibor qaratganlar.

Taqlid so'zlar o'ziga xos fonetik shakllangan lisoniy birliklar xususiyati, kelib chiqishi va foydalanish nuqtayi nazaridan boshqa lisoniy birliklardan ajralib turadi. Chunki ular nutqning boshqa qismlariga xos bo'lmagan bir qator xususiyatlarga ega: aynan ishora qilish, harakatli vaziyat, tovushni ko'rsatish, holat belgilarini aynan tasvirlash va hokazo. Biroq taqlid so'zlar tabiatdagi tovush va holatlarni aynan aks ettiradi degani emas. Har bir milliy til tabiatdagi tovushlar va holatlarni o'zining cheklangan fonetik va grafik tizimi imkoniyatlari doirasidagina ifodalaydi. Shuning uchun ham taqlid so'zni uning tabiatdagi asosi bilan aynan bir xil deyish

психофізіологічні аспекти структури знаку / Наукові праці Кам'янець-Подільського національного університету імені Івана Огієнка. Філологічні науки. – 2009. – Вып. 20. – С. 338-343.

⁹ Газов-Гинзберг А.М. Был ли язык изобразителен в своих истоках? – М.: Наука, 1965. – С. 121.

¹⁰ Қўнгуоров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 40-49; Гачев Г.Д. Национальные образы мира. – М.: Академия, 1998. – С. 7-81.

¹¹ Исаков А.И. О подражательных словах в казахском языке // Тюркологический сборник. Т. 1. – М. –Л., 1951. – С. 103-111; Сарыбаев Ш.Ш. Подражательные слова и их отношение к междометиям // Известия АН КазССР. Серия "Филология и искусствоведение". Вып. 1-2. – 1954. – С. 46-54; Кудайбергенов С. Подражательные слова в киргизском языке. – Фрунзе: Киргизучпедгиз, 1957. – 106 с.; Худайкулиев М. Подражательные слова в туркменском языке. – Ашхабад: Изд-во АН Турк.ССР, 1962. – 135 с.; Катембаева Б.Ш. Подражательные слова в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1965. – 23 с.; Хусаинов К.Ш. Звукоизобразительные глаголы смеха в казахском языке // Советская тюркология. – 1987. – № 6. – С. 67-76; Zulfikar H. Türkçede Ses Yansımali Kelimeler. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yay, 1995; Шарафетдинова З.Г. Морфологическая структура подражательных слов в татарском языке (на татарском языке) / Самосовершенствование, самореализация личности: психолого-педагогические аспекты. Материалы научно-практической конференции. Ч. I. – Набережные Челны: Изд-во НГПИ, 2007. – С. 396-400.

mumkin emas. Lekin taqlid soʻzlar nutq amaliyotida til egalari uchun umumiy maʼnoga ega soʻzlarga aylanadi. Bunday soʻzlar tovush va holatni tavsiflash orqali aks ettiradi. Shu sababli ularning maʼnosi oddiy soʻzlarning maʼnolariga qaraganda kamroq umumlashma darajasiga ega boʻladi. Masalan, *oʻsimlik* soʻzi oʻsimlik olamiga mansub – giyoh, gul, buta kabi juda koʻp turlarni umumlashtirib ifodalaydi. *Taq-taq, duk-duk, yilt-yilt* kabi taqlid soʻzlar faqatgina muayyan ovoz yoki holatnigina ifodalaydi. Masalan, *bilch-bilch* loyda bosilganda chiqadigan ovoz boʻlsa, *gʻarch-gʻurch* qorda yurilganda eshitiladigan ovozga taqlid sifatida qoʻllanadi.

Shuni taʼkidlash kerakki, har bir taqlid soʻz tabiatdagi tovushini imkon qadar aniq aks ettirishga asoslanadi, shuning uchun koʻplab taqlid soʻzlarda uning “tabiiy tovushi” osongina sezilib turadi. Rus tilshunos olimi V.Abayev va boshqa tadqiqotchilar oʻz tadqiqotida rus, ingliz va nemis tillarida uchraydigan ovozga taqlid soʻzlarni qiyosiy-tipologik sathda oʻrganib¹², ularning nutqdagi ifoda xususiyatlarini milliy va madaniy bogʻliqligiga koʻra tahlil etgan. S.Avakov esa undov va ovozga taqlid soʻzlarning koʻchma maʼno xususiyatlari haqida ham atroflicha maʼlumotlar keltirgan. Shuningdek, undov va ovozga taqlid soʻzlarni qiyoslanayotgan tillardagi semantik va sintaktik qirralarining umumiy hamda xususiy jihatlarini ilmiy ochiqlashga harakat qiladi¹³. Olim baʼzi oʻrinlarda oʻz hissiyotlarini ilmiy qarashlariga singdirib, ayrim ovozga taqlid soʻzlarni undov soʻzlarga yaqinlashtirib qoʻyadi¹⁴. Xususan, S.Avakov ovozga taqlid soʻzlar tarixiy jihatdan oʻzining ichki va tashqi formasi oʻzgartirib turishini hamda sinonimlar evaziga oʻz semalarini qoplashi mumkinligini taʼkidlaydi¹⁵.

Tilshunoslik tadqiqotlarining koʻplab oʻrganish markazlari orasida undov soʻzlar eng munozarali va murakkab hodisa boʻlib, barcha anʼanaviy tilshunoslikda tortishuvli qarashlar mavjud va talqinlarda qutblashgan vaziyatlarni uchrab turadi. Darhaqiqat, undov soʻzlarning yetarli darajada oʻrganilmaganligi, ularning noaniq talqini va ushbu birliklarning har qanday yagona, izchil nazariy tasnif hamda taʼriflar asosida lingvistik qoidalarga yaxlitlanmasligi talay tadqiqotlarda aytilgan. Xususan, oʻtgan asrning oʻrtalarida A.Germanovich oʻzining monografik tadqiqotida undov soʻzlarni nutqning barcha qismlari orasida tutadigan alohida oʻrnini koʻrsatib, ushbu toifaga nisbatan eng koʻp tortishuvlar va

¹² Газов-Гинзберг А.М. Был ли язык изобретателен в своих истоках? – М.: Наука, 1965; Абаев В.И. О термине “естественный язык” // Вопросы языкознания. – Москва, 1976. – №4; Курашкина Н.А. Звукообозначения как репрезентация звукосферы в языке (на материале английских, французских и русских антропо- и орнитофонов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2007.

¹³ Аваков С.А. Звукоподражательные слова русского языка в сравнение с английским и немецким: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2007. – С. 3.

¹⁴ Shu muallif. Koʻrsatilgan manba. – С. 8.

¹⁵ Shu muallif. Koʻrsatilgan manba. – С. 10.

kelishmovchiliklar mavjudligini aytib o'tadi¹⁶. Olim ushbu tadqiqotida undov so'zlarning tildagi alohida o'rni va vazifasini ko'rsatib, ushbu birliklarga nisbatan nazariy munosabatlarni yagona tizimga keltirish kerakligini ta'kidlaydi¹⁷. Shuningdek, u mazkur birliklar haqidagi o'zidan oldingi aytilgan lingvistik qarashlarni tasniflab, farqning mazmunda emas, uslubda ekanligini dalillab beradi¹⁸. I.Sharonov o'z tadqiqotida undov so'zlarning lingvistik xususiyati to'g'risidagi olimlarning fikri shu darajada keskinlashib va bir-biriga zidlashib ketganligini aytib o'tadi. Bunday qarash vakillari: N.Grex, D.Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.Peshkovskiy, J.Shmidt, A.Rudnev, A.Bobrovnikovlar fikrlarida qat'iy bo'lib, ular hatto undov so'zlarni tilshunoslikning o'rganish birliklari qatoridan chiqarib tashlashni ilgari surishadi. Ular undov so'zlarni hislar bilan bog'liq, tushunchalarga aloqador va fiziologik ta'sirlar natijasida vujudga keladi, degan fikrda bo'ldilar. Shuning uchun undov so'zlarni boshqa fanlarning o'rganish markazi bo'lishi kerakligini targ'ib qilishdi¹⁹. Zero, I.Lomonosov birinchilardan bo'lib undov so'zlarni til birligi bo'la olishini aytgan va bu g'oyani keyinchalik V.Rassadin, V.Vinogradov, N.Germanovich, A.Meshchaninov, L.Karpov, N.Nedelyayev kabi olimlar qo'llab-quvvatladilar. Bu olimlar undov so'zlarning badiiy matnda nutqiy birliklar tashkillanishida faol qatnashishi, shuningdek, ular badiiy matnning butun matniy tuzilishi(syujet qurilishi, asar personajlarining xarakter xususiyatlarinin aynan ko'rsatish, asar tilining o'ziga xosligi kabilar)da asosiy vazifa o'tashini o'z tadqiqotlarida ta'kidladilar. Tarixiy va davriy tadqiqotlardagi qarashlarni umumlashtirsak, bu fikrda bo'lgan ilm egalarining salmoqli ekanligini ko'ramiz. Biz ham tadqiqotimizda shu fikrlarga tayanamiz.

A.Germanovich bilan bir davrda tadqiqotlar olib borgan o'zbek olimi S.Usmonov ham olim bilan bir fikrda ekanligini o'z tadqiqotlarida bildirib: "Undovlarni so'z deb hisoblamaslik ularni oddiy emotsional kayfiyatning instinktiv signalgina deb baholashdan kelib chiqadi. Undovlar faqatgina hishayajon yoki, umuman, emotsiyangina anglatmaydi"²⁰, - deb o'z pozitsiyasini bildiradi. Albatta, biz ham bu fikrlarga qo'shilamiz hamda qarashlarimizni tadqiqotning keyingi qismlarida dalillashga harakat qilamiz.

XXI asrning boshlarida Y.Sereda tomonidan undov so'zlar "oz o'rganilgan so'zlar guruhi" sifatida tekshirilgach²¹, bu mavzuga aloqador muammolar yana kun tartibiga chiqdi. Tilshunos A.Statsenko ham undov so'zlarning ta'rifi va

¹⁶ Германович А.И. Междометие, интонация и жест / Известия КПИ. – Симферополь, 1957. – 543 с.

¹⁷ Shu muallif. Ko'rsatilgan manba. – С. 543.

¹⁸ Шаронов И.А. Междометия в речи, тексте и словаре. – М.: Изд-во РГГУ, 2008. – 288 с.

¹⁹ Shu muallif. Ko'rsatilgan manba. – С. 261.

²⁰ Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида ундовлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1962. – Б. 8.

²¹ Середя Е.В. Место междометий в системе частей речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.,

tadqiqni maromiga yetmagan birliklar sifatida munosabat bildiradi²². S.Mamushkina ushbu masalaga fikr bildirib, xanuz undov soʻzlarning mazmun-mohiyati, kognitiv xususiyatlari, lingvistik va poetik imkoniyatlari toʻliq ochilmaganligi va bu borada bir talay ochiq savollar mavjudligini taʼkidlaydi²³.

XULOSA

Undov va taqlid soʻzlar tilning eng qadimiy hamda oʻziga xos lisoniy birliklaridan biri sifatida nafaqat kommunikativ, balki poetik-estetik vazifalarni ham bajaradi. Ularning badiiy matndagi qoʻllanishi muallifning hissiy munosabati, obrazli tafakkuri va badiiy niyatini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, undov va taqlid soʻzlar fonetik shakli, semantik imkoniyati va uslubiy tabiati bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi hamda matnning ekspressivligi va taʼsirchanligini oshirishda muhim oʻrin egallaydi.

Maqolada koʻrib chiqilgan nazariy qarashlar undov va taqlid soʻzlarning tilshunoslik tarixida doimo murakkab va bahsli masala boʻlib kelganligini koʻrsatadi. Antik davrdan boshlab zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikka boʻlgan qarashlar ushbu birliklarning tilning paydo boʻlishi, inson tafakkuri va nutq faoliyati bilan uzviy bogʻliqligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, undov va taqlid soʻzlarning inson hissiyoti, idroki va voqelikni qabul qilish jarayonlari bilan chambarchas bogʻliq ekanligi ularni kognitiv hamda pragmatik jihatdan oʻrganish zaruratini kuchaytiradi. Shuningdek, undov va taqlid soʻzlarning badiiy matndagi grafik, fonetik va punktuatsion imkoniyatlari hali yetarlicha monografik tadqiq etilmaganligi aniqlandi. Bu birliklarning intralingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning matn hosil qilishdagi vazifasi, personaj nutqini individuallashtirishdagi roli hamda oʻquvchi badiiy idrokiga taʼsirini aniqlash kelgusidagi muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Demak, undov va taqlid soʻzlarni zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida kompleks tadqiq etish oʻzbek tilshunosligida ushbu birliklarning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Абаев В. И. О подражательных словах в различных языках. – Москва: Наука, 1965.
2. Анохин П. К. Биология и нейрофизиология условного рефлекса. – Москва: Медицина, 1968.

²² Стаценко А. С. Проблемы перевода слов с эмоциональным компонентом // Общество: философия, история, культура. 2011. – № 3-4. – С. 110-117.

²³ Мамушкина С.Ю. Семантика и прагматика междометий в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд.филол. наук. – Самара, 2003. – 32 с.

3. Аваков С. Междометия и звукоподражательные слова в сопоставительном аспекте. – Тбилиси: Мецниереба, 1984.
4. Болдирев Н. Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2001.
5. Филлмор Ч. Основные проблемы лингвистической семантики // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва, 1988.
6. Газов-Гинзберг А. М. Было ли звукоподражание источником речи? – Москва: Наука, 1965.
7. Германович А. И. Междометия русского языка. – Киев: Изд-во Киевского университета, 1966.
8. Гумболдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984.
9. Искаков А. Қазіргі қазақ тілі. – Алматы: Ана тілі, 1991.
10. Кубрякова Э. С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
11. Лебедев А. Философия языка античности. – Санкт-Петербург: Наука, 1999.
12. Ломоносов М. В. Российская грамматика. – Санкт-Петербург, 1755.
13. Лосев А. Ф. История античной эстетики. – Москва: Искусство, 1963.
14. Мамушкина С. Междометия в современной лингвистике // Вопросы языкознания. – Москва, 2012. – №3. – С. 45–52.
15. Никитин М. В. Основы лингвистической теории значения. – Москва: Высшая школа, 1988.
16. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966.
17. Середа Й. Междометия как малоизученная группа слов // Филологические науки. – Москва, 2003. – №4. – С. 67–72.
18. Шаронов И. А. Междометия в речи и языке. – Москва: Изд-во МГУ, 2008.
19. Усмонов С. Ўзбек тилида ундов сўзлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1961. – №2. – Б. 34–40.
20. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – Москва: Высшая школа, 1972.
21. Воронин С. В. Основы фоносемантики. – Ленинград: ЛГУ, 1982.
22. Вигоцкий Л. С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982.
23. Худяков А. А. Теоретические основы номинации. – Иркутск: ИГУ, 1990.
24. Зулфиқор Ҳ. Туркий тилларда таклид сўзлар семантикаси. – Тошкент: Фан, 2005.



25. Шарафетдинова З. Тақлид сўзларнинг лингвопоэтик хусусиятлари // Филология масалалари. – Тошкент, 2018. – №1. – Б. 78–85.